

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UO‘K: 81’282.3

ORCID: 0000-0001-5768-0789

QARLUQ LAHJASI LEKSIKASIGA XOS XUSUSIYATLARNING SHONAZAR SHOABDURAHMONOV TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Qodirov Umarjon Akramjon o‘g‘li

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi*

umarqodirov6669@gmail.com

+998973430942

Annotatsiya. Shonazar Shoabdurahmonov o‘zbek dialektologiyasi tarixida o‘zbek tili qarluq lahjasining yirik tadqiqotchisi sifatida salmoqli iz qoldirgan. Uning “Карлукское наречие узбекского языка” (O‘zbek tilining qarluq lahjasi) nomli fundamental tadqiqotida ushbu lahjaning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari mukammal tavsiflab berilgan. Olimning bu yirik tadqiqoti ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun dastur vazifasini o‘tadi. Maqolada olimning qarluq lahjasi leksikasi xususidagi nazariy qarashlari, ilmiy xulosalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qarluq lahjasi, dialekt, sheva, leksika, adabiy til, tayanch dialekt.

Аннотация. Шаназар Шаабдурахманов оставил значительный след в истории узбекской диалектологии как крупный исследователь карлукского диалекта узбекского языка. В его фундаментальном исследовании под названием «Карлукское наречие узбекского языка» прекрасно описаны фонетические, морфологические и лексические особенности этого диалекта. Это масштабное исследование ученого служит программой дальнейших исследований в этом направлении. В статье говорится о теоретических взглядах и научных выводах ученого относительно лексики карлукского наречия.

Ключевые слова: карлукское наречие, диалект, говор, лексика, литературный язык, базовый диалект.

Abstract. Shanazar Shaabdurakhmanov left a significant mark in the history of Uzbek dialectology as a major researcher of the Karluk dialect of the Uzbek language. His fundamental study entitled “Карлукское наречие узбекского языка” (Karluk dialect of the Uzbek language) perfectly describes the phonetic, morphological and lexical features of this dialect. This large-scale study by the scientist serves as a program for further research in this direction.

The article talks about the theoretical views and scientific conclusions of the scientist regarding the vocabulary of the Karluk dialect.

Keywords: karluk dialect, dialect, lexicon, literary language, basic dialect.

KIRISH

Shonazar Shoabdurahmonov “Карлукское наречие узбекского языка” (O‘zbek tilining qarluq lahjasi) nomli monografiyasida ushbu lahjaning leksikasi bo‘yicha izlanishlari natijalarini bayon qilib o‘tgan. Qarluq lahjasi tarkibiga kirgan shevalarning leksik tarkibi boy va xilma-xilligini ta’kidlar ekan, bu shevalarda kelib chiqishi turlicha bo‘lgan, turli tarixiy davrlarga xos leksik qatlamlar mavjudligini aytadi. Tadqiqotchi lahja shevalari leksikasi xususida so‘z yuritar ekan, ularni ma’nolariga ko‘ra guruhlaydi, masalan, qarindoshlikni anglatgan so‘zlar guruhi, yoki qishloq xo‘jaligining ma’lum bir sohasiga – paxtachilikka oid so‘zlar guruhi, chorvachilikka oid so‘zlar guruhi kabi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar haqida fikr yuritar ekan, adabiy tildagi “ota”, “ona”, “o‘g‘il” kabi so‘zlar qarluq lahjasi shevalarida shu ma’nolarni anglatishi bilan birga, ayrim spetsifik xususiyatlarga ham ega ekanligini aytadi. Masalan, and. кәтәтә > кәттә: (<кәттә әтә) ~ toshk. буйә // ad.-orf. buva, and. кәтәнә (<кәттә әнә) ≈ toshk. буйв // ad.-orf. buvi; әкә (tooshk. әкә // ad.-orf. aka (qipchoq shevalarida әкә so‘zi “ota” va “amaki” ma’nosida ham qo‘llanadi), бөлә // ad.-orf. bo‘la (ba’zi shevalarda amakivachcha ma’nosida ham ishlatiladi, tooshk. әпәк, тәғә, әмәк, хәлә, кельн, куйәв, джыйән, қәйнәнә, қәйнәтә, қәйнән, қәйнәнсьнғьл, қәйнәғә, қәйнәғәч // ad.-orf. opoqi, tog‘a, amaki, xola, kelin, kuyov, jiyan, qayin ona, qayin ota, qayin ini, qayin singil, qayin og‘a, qayin egachi va boshqalar.

Qarluq lahjasi shevalarida o‘sha xalqning hayot tarzi, iqtisodiy turmush darajasi bilan bog‘liq so‘zlar guruhi ham shakllangan. Ma’lum bir hududda ishlab chiqarishning yoki chorvachilikning, qishloq xo‘jaligining biror-bir sohasi rivojlanishi bilan bog‘liq holda maxsus termin – so‘zlar guruhi shakllanadi. Masalan, xalq chorvachilik bilan shug‘ullanadigan hududlarda chorvachilik terminologiyasi juda rivojlangan. Hayvonlarning nomlanishi ularning yoshiga, jinsiga, rang-tusiga qarab farqlangan. Masalan: қулун (bir yoshgacha bo‘lgan otning bolasi), кәлтәтәй (bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan ot), ғонан (ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan ot), донан (uch yoshdan to‘rt yoshgachasi), бешль (to‘rt yoshdan besh yoshgachasi), бота (tuyaning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi, тайлак (tuyaning bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan bolasi), нап (to‘rt yoshli nasl olinadigan erkak tuya), түйә (to‘rt yoshdan katta tuya), тоқлу (ikki yoshgacha bo‘lgan qo‘y), хъшшәк (ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan qo‘y), чарь (to‘rt yoshlisi), панжъ (besh yoshlisi).

Shunga o‘xshab dehqonchilik rivojlangan hududlarda termin-so‘zlar dehqonchilik sohasining eng mayda narsalarini ham ifodalaydi. Masalan, paxtachilik sohasida: farg‘. пәхтаб хәппәк // ләппәк, ғоза, шәнәбәрг, бешәмәк, кәсәк, көрәк, әләқарәк, ьрджәк, чувьмә // ad.-

orf. paxta, lo‘ppak, g‘o‘za, shonabarg, beshamak, ko‘sak, ko‘rak, olaqaroq, irjoq, chuvima va boshqalar.

Biror-bir shevaga xos bo‘lgan ma’lum bir soha doirasida qo‘llanadigan so‘zlar umumxalq leksik qatlamiga qiyoslaganda juda oz miqdorni tashkil qiladi. Adabiy tilning ta’siri ostida bunday so‘zlar passiv (nafaol) leksik qatlamga o‘tib bormoqda.

Qarluq lahjasi shevalari leksikasi xususida so‘z yuritar ekan, Shonazar Shoabdurahmonov bu lahjaning leksik qatlamini bir necha guruhga ajratadi:

1. Turkiy leksik qatlam.
2. O‘zlashgan leksik qatlam:
 - 1) arab tilidan o‘zlashgan leksik qatlam;
 - 2) fors-tojik tilidan o‘zlashgan leksik qatlam;
 - 3) rus va boshqa tillardan o‘zlashgan leksik qatlam.

1. Turkiy leksik qatlam. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga kiradi, shuning uchun ko‘pgina tub o‘zbekcha so‘zlar boshqa qarindosh turkiy tillar etimologik jihatdan yaxlitlikka ega. Masalan:

O‘zb	{	toshk. баш, йурэй, қара, мән, бър, бар.
		and. баш, йүрак, қара, мен, бър, бар.

қозоқ. бас, жүрек, қара, мен, бър, бар.

қирғиз. баш, жүрэй, қара, мен, бир, бар.

усм. турк. bas, yurek, kara, ben, bir, var.

Shunday moslik ko‘p bo‘lsa-da, o‘zbek tili leksikasida boshqa turkiy tillarda uchramaydigan ko‘pgina so‘zlar mavjud. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek tilining asosiy leksik qatlamida barcha qarindosh turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar nihoyatda ko‘p. Garchi zamonaviy o‘zbek adabiy tili leksikasida boshqa turkiy tillar leksikasi bilan moslik nisbatan ozroq bo‘lsa-da, o‘zbek tilining jonli lahjalarida, xususan, qarluq lahjasida ham bunday moslik juda ko‘p uchraydi. Qarluq lahjasining shahar shevalardagi so‘zlarni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” lug‘atidagi so‘zlarga solishtirganimizda bu masalaga ancha oydinlik kiritilganini ko‘rishimiz mumkin:

субъзғо (toshk.) // ad.-orf. sibizg‘a ≈ cībīzғy (МК, I, 451).

чуғурчу (toshk.) // ad.-orf. chug‘urchuq ≈ cīғірчїқ (МК, I, 460).

зәғъзғән (toshk.) // ad.-orf. ≈ сағїзған (МК, I, 473).

қәлдърғәч (toshk.) // ad.-orf. qaldirg‘och ≈ қарғїлач (МК, I, 479).

қәвһн (toshk.) // ad.-orf. qovun ≈ қағун (МК, I, 388).

бут (toshk. “chot” ma’nosida) ≈ put (and. “oyoq” ma’nosida) ≈ бут (МК, I, 255: “oyoq” ma’nosida: қарға қазға өткунсә бүті сінур).

чъйән (toshk.) // ad.-orf. chayon ≈ чазан (МК, I, 388).

қәвърмәч // қўғърмәч (toshk.) ≈ қоғурмач // қавутмач (МК, I, 454).

олқъндъ (toshk. sovun qoldig‘i) ≈ алқинді (МҚ, I, 255 “туғамок”, “ўлмоқ” маъносида: ёр алқинді – киши ўлди).

айо: (toshk.) ≈ айак (farg‘.) ≈ аҗак // азақ (МҚ, I, 96, 112).

йе:лѣй (toshk.) ≈ эликлик (МҚ, I, 168: “qo‘lqop” ma’nosida).

енггэй (toshk.) ≈ ъйәк (farg‘.) ≈ эңәк (МҚ, I, 154).

уйәлдъ (toshk.) ≈ уйаттъ (farg‘.) ≈ ујатті (МҚ, I, 222: ол мөндін ујатті), ујалді (МҚ, I, 267, 267: ол мөндән ујалді).

ькләндъ (toshk. “kasal bo‘ldi” ma’nosida) ≈ iklәшді (МҚ, I, 244).

ьнәндъм (toshk.) ≈ инәндім (МҚ, I, 213: мән аңар инәндім).

әлқъмәк (toshk. “maqtamoq” ma’nosida) ≈ алқишді (МҚ, I, 240: ол мөнің бірлә алқиш алқишді – u men bilan birga maqtadi).

O‘zbek tili va boshqa turkiy tillar leksik qatlamining mos kelishi ularning manbasi bitta til bo‘lganligini ko‘rsatadi. Davrlar o‘tishi, hududiy chegaralar vujudga kelishi, turmush tarzlarining o‘zgarishi, iqtisodiy, siyosiy sabablar tufayli bu tillardagi so‘zlar turli fonetik va semantik o‘zgarishlarga uchragan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bu so‘zlar turli tillarda turlicha fonetik-semantik ma’nolar kasb etgan. Natijada bitta manbadan kelib chiqqan so‘zlarda bir-biriga mos kelmaydigan ma’no qirralari paydo bo‘lgan va ular tobora orta borgan.

Shonazar Shoabdurahmonov o‘zbek shevalari leksikasi haqida so‘z yuritir ekan, ularning bir-biridan nafaqat fonetik va morfologik, balki jiddiy leksik farqlarga ham ega ekanligini qayd qilib o‘tadi. U qarluq lahjasi shevalari leksikasini o‘g‘uz va qipchoq lahjasi leksikasiga qiyoslab, quyidagi jadvalni keltiradi:

Qarluq lahjasi			O‘g‘uz lahjasi	Qipchoq lahjasi
Toshkent	Samarqand	Farg‘ona		
чәкәлә:	чақаләк	бувак//жижи	бөвәк	бөвәк//бөвәк
қўқәнджухәр	сарджувар	әқджугар	джувән	джугәри
гәрәмдәр	қалампур	қалампәр	бурч	қалампыр
дәвуччә	дәвучча	ғорә	дүвчә	дөвчә
қәләмчә	қаламча	чъкәлдәк	нәлчә	қаламча
ўғәр	ўғур	кель	со:қы	кели
гүшәнггә	чъмьллък	чъмьлдък	гөшәйәнә	чимылдық
духәбә	бахмал	бәрқът	бахмал	бахмал
ўргумчәй	тәртанак	өрмәнчък	тартәнәк	өргәмчи
ўчә:вәв	әшхәна	әшхәнә	ашханә	ашқана
хәнъй	ташнава	әврүз	тошшы	абруз
чәкәй	джәғ	джақ	джағ	Джақ
йелъй	әстәнча	йенгъчә	йенгсә	джангса
чўпчәй	матал	ертәк	ертәй	Мәтәл
нәрвән	нәрбән	шатъ	зангги	нарван
чумәль	морча	чүмәльк	қарынджә	чумалы [8: 131]

O‘zbek tili shevalarida ba’zi holatlarda bir predmet bitta so‘z bilan ifodalanadi, faqat u so‘zning fonetikasida (talaffuzida) ayrim farqlar bo‘ladi. Masalan: toshk. чэч // and. чэч // ad.-orf. soch; toshk. зьрэй // o‘g‘uz. зьрэй // farg‘. зьрэк // ad.-orf. zirak; toshk. қула: // farg‘. қулақ // ad.-orf. quloq; toshk. чуғурчу: // and. чьғырчък // ad.-orf. chug‘urchuq; toshk. эшшъ // farg‘. эштъ // ad.-orf. oshni va h.k. So‘zlardagi bunday farqlarga fonetik va morfologik farqlar sifatida qaraladi.

Yana o‘zbek shevalarida ayni bir narsani turlicha so‘zlar bilan nomlanish holati ham ko‘p uchraydi. Masalan, toshk. нэрвон $\approx$ farg‘. шэть $\approx$ o‘g‘uz. зэнги; toshk. ўғър $\approx$ farg‘. кель $\approx$ o‘g‘uz. со:қы va h.k. So‘zlardagi bunday turlichalik leksik farq, deb nomlanadi.

Qarluq lahjasi shevalari, xususan, toshkent-farg‘ona shevalari orasida ham bir narsani nomlangan so‘zlarning bir-biridan butunlay farqlangan holatlari uchraydi. Masalan:

toshk. зэғызғэн $\approx$ and. хэккэ // ad. hakka;
 toshk. чэпэн $\approx$ farg‘. тон // ad. chopon, to‘n;
 toshk. қьдър $\approx$ farg‘. ъстэ // ad. qidir, izla;
 toshk. дэвуччэ $\approx$ and. ғорэ // ad. dovuchcha;
 toshk. ўғър $\approx$ and., farg‘. кель // ad. o‘g‘ir, keli;
 toshk. гўшэнггэ $\approx$ farg‘. чьмьлдък // ad. chimildiq;
 toshk. чэқэлэ: $\approx$ farg‘. бувэк // жъжъ // ad. chaqaloq;
 toshk. лъққэ: $\approx$ farg‘., and. пьркъ // ad. liqqoq;
 toshk. хэньй $\approx$ farg‘. эвруз // ad. obrez;
 toshk. оғъз $\approx$ farg‘. пэллэ // ad. og‘iz;
 toshk. тэнчэ $\approx$ farg‘. сэндэл // ad. sandal;
 toshk. тэқъ $\approx$ farg‘., and. вэссэ // ad. toqi.

Bu keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek adabiy tili leksikasining boyishida yetakchi shahar shevalari (xususan, qarluq lahjasi yetakchi shahar shevalari) katta rol o‘ynagan. Bu o‘rinda Toshkent dialektining yetakchi o‘rinda bo‘lganini Shonazar Shoabdurahmonov alohida ta’kidlab o‘tgan.

Adabiy til esa o‘ziga barcha lahjalar uchun umumiylik kasb etgan so‘zlarni qabul qilib oladi. Masalan: toshk., farg‘. сьгър // сьйър / сь:ър $\approx$ sam.-bux. ънак $\approx$ uychi. үй // ad.-orf. sigir. Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tganimizdek, bitta tushuncha turli lahjalarda turlicha so‘zlar bilan ifodalanishi mumkin.

Biz keltirib o‘tgan qarluq lahjasi shevalariga xos so‘zlar adabiy tilda va badiiy adabiyotda dominantlarsiz dubletlar sifatida ham ishlatiladi. Masalan: шэть va нэрвон, тэнчэ va сэндэл, чьмьлдък va гўшэнггэ, чьммэт, чэчвон va паранжъ va h.k.

Shonazar Shoabdurahmonov “Карлукское наречие узбекского языка” monografiyasida qarluq lahjasi shevalaridan tuzgan lug‘atidagi ayrim so‘zlarning xususiyatlariga, xususan, ularning o‘zbek adabiy tili va mumtoz adabiyot tiliga munosabati masalasiga to‘xtalib o‘tamiz.

1. лъдтэм (bux.) // ad.-orf. yugan.

Bu so‘z buxoro shevasiga xos so‘z bo‘lib, asli arabcha “lijom” (لَجْمٌ, اللَّجْمَةُ, ko‘pl. لَجَامَاتٌ) so‘zidan olinib, [3] talaffuzi o‘zbek tiliga moslashtirilgan. Mumtoz adabiyotda ham “lijom” shaklida ishlatilgan.

2. Ғулба // ҒУЛБА (bux.) ≈ қувыр (toshk.) // ad.-orf. quvur.

Qarluq lahjasining buxoro shevasiga xos bo‘lgan bu so‘z forscha “g‘ulb” (غلب) so‘zidan olingan. Mumtoz adabiyotda “g‘ulb” shaklida quvur ma’nosida ishlatiladi. Navoiy “Farhod va Shirin”dan:

Birining mumdek ilgida xoro,

Qilib suv g‘ulbig‘a shir oshkoro. [1: 85]

3. омоч (toshk.) ≈ сәхтәк (bux.) // ad.-orf. omoch – soxa.

Qarluq lahjasining toshkent shevasiga xos bo‘lgan омоч so‘zi o‘zbek adabiy tiliga fonetik o‘zgarishsiz qabul qilingan bo‘lib, yerni shudgor qiladigan, ag‘daradigan asbob ma’nosini anglatadi, asl turkiy so‘z. Mumtoz adabiyotda, she’riyatda “омоч” so‘zining muqobili bo‘lgan, fors tiliga oid “omoch” so‘zi esa, o‘q otib mashq qiladigan nishon ma’nosini anglatadi. [9: 484]

Lutfiy quyidagi baytda “omoch” so‘zini “nishon” ma’nosida qo‘llagan:

Nishon topqay baqodin anda Lutfiy,

Ki xoki o‘qlaringga bo‘lsa omoch. [4: 45]

4. Коза (bux.) // ad.-orf. chayla, kapa.

Qarluq lahjasining buxoro shevasiga fors-tojik tilidan o‘tgan so‘z. Mumtoz adabiyotimizda, she’riyatda keng qo‘llanadigan so‘z. Muhayyir ijodidan:

Muhayyir o‘tgani vayrona bas bo‘lg‘ay, nazar qilkim,

Kifoya aylamish Luqmong‘a ming yil ichra bir koza.

Muhayyir notavon gar o‘lsa, ey ahhob, ayb etmang,

Tikib ul mahjabinni ostoni ko‘yida koza. [5: 201]

5. ҳопәдә (namang.) // ҳопътмақ (and., qo‘qon) // ad.-orf. cho‘milmoq.

Qarluq lahjasining andijon, qo‘qon shevalarida “ҳопътмақ” fe’li adabiy tildagi “cho‘milmoq” fe’li ma’nosida ishlatiladi. Adabiy tilda kam qo‘llanadi. Iste’dodli shoir Usmon Nosir buyuk rus shoiri Mixail Yurevich Lermontovning “Demon” poemasini tarjima qilishda ushbu so‘zni ishlatgan:

Ammo biron marta bo‘lsa ham,

Saratonda dim va issiq kech

Bunday qomat, bundayin sanam

U suvlarda hopitmagan hech. [7: 248]

Usmon Nosir bu so‘zni o‘z tarjimasida bejizga ishlatmagan. Usmon Nosirning bolalik yillari Qo‘qonda o‘tgan. Qo‘qon shevasi iste’dodli shoir uchun qadrdon shevaga aylangan.

6. әймәкь (toshk.) ≈ қайрәкь (farg‘., and.) // ad.-orf. aymoqi – sovuqqa chidamli. Sovuqqa chidamli uzum.

Qarluq lahjasining toshkent shevasiga xos ushbu so‘z qo‘qon shevasida ham ishlatiladi, faqat butunlay boshqa ma’noda. Yoshi katta odam o‘zidan yoshi kichiklar bilan ko‘p hazil-huzul

qilaversa, uning yoshlar oldidagi haybati yo‘qolib, yoshlar unga bepisand muomala qila boshlaydi. Shunday odamni “aymoqi bo‘lib qolibdi” deb aytiladi. Toshkent shevasidagi “sovuqqa chidamli”, “chiniqqan” degan ma‘noni ifodalash uchun esa qo‘qon shevasida “қайрәкъ” so‘zi ishlatiladi.

Shonazar Shoabdurahmonov o‘zi tuzgan lug‘atda ҳәкәндәз (toshk.), әләвкүрәк (farg‘.), әтәшкүрәй (toshk.), хәгүрә (namang.) so‘zlarini adabiy tildagi “xokandoz” so‘zining dubletlari sifatida ko‘rsatadi. Lekin bu so‘zlarning ma‘nolarida ayrim o‘ziga xosliklar bor. Farg‘ona shevasida o‘choqdagi yonib bo‘lgan o‘tinning cho‘g‘ini sandalga (tanchaga) solish uchun ishlatiladigan, sopi kalta temir kurakni “әләвкүрәк” deb aytiladi. Farg‘ona shevasida “әтәшкүрәй” deb o‘choq yoki pechkadagi cho‘g‘ yoki ko‘mirni qisib olib u yoq bu yoqqa siljitish uchun ishlaydigan, vrachlarning pinsetiga o‘xshab ketadigan asbobni aytiladi. “Хәкәндәз” deb esa toshkent shevasida uy-hovlilarni supurib bo‘lgach, supurindini olish uchun ishlatiladigan tunukadan yoki plastmassadan bo‘lgan kurakni aytiladi. Farg‘ona shevasidagi “әләвкүрәк” so‘zi o‘rnida toshkent shevasida “әтәшкүрәй” so‘zi qo‘llanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. (1991). *Фарҳод ва Ширин*. Фан.
2. Ashirboyev, S. (2021). *O‘zbek dialektologiyasi*. Nodirabegim.
3. Баранов, Х.К. (1984). *Арабско-русский словарь*. Русский язык.
4. Лутфий. (1965). *Девон*. Бадий адабиёт.
5. Муҳаййир. (2010). *Девон*. Муҳаррир.
6. Qodirov, U. (2025). The scientific activities of Shonazar Shoabdurahmonov. *Bulletin of Pedagogics of New Uzbekistan*, 3(2), 94–99. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/45024>
7. Усмон Носир. (1988). *Унутмас мени бозим*. Ғафур Ғулом.
8. Шаабдурахманов, Ш. (1983). *Карлукское наречие узбекского языка*. Фан.
9. Шамсиев П., Иброҳимов С. (1973). *Навоий асарлари лугати*. Ғафур Ғулом.
10. Шоабдурахмонов, Ш. (1961). Таянч шаҳар шевалари лексикасидан. *Ўзбек диалектологиясидан материаллар*, II, 274-331.
11. Шоабдурахмонов, Ш. (1962). *Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари*. Фан.